



UDK: 376.12:793

*Maxliyo BOYMUMINOVA,*  
*Magistrant, Qarshi davlat universiteti*  
*E-mail: maxliyoboyuminova@gmail.com*

*QarshiDU dotsenti E.Yoziyev taqrizi asosida*

#### MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALAR AQLIY RIVOJLANISHIDA O'YINNING AHAMIYATI

Annotatsiya

Maktabgacha yosh davri inson hayoti yo'lidagi eng muhim bosqichlardan biridir. Bu bosqichda bolaning jismoniy, aqliy va ruhiy rivojlanishi uchun paydo bo'ladigan imkoniyatlar va jarayonlar bir-biri bilan uzviy bog'liq holda kechadi. Aynan shu paytda individual qobiliyatlar shakllana boshlaydi, atrof-muhit, oiladagi va jamoada bo'ladigan ilk muloqotlarning ijobiy ta'siri natijasida dunyoqarash, xarakter va mustaqil fikrlash ko'nikmalari rivojlanadi. Bu davrda bolalar ko'proq o'yin vositasida tashqi olamni o'rganadilar, o'zlari uchun yangi, ilgari noma'lum bo'lgan narsalarni kashf qiladilar. O'yin ularning tabiiy ehtiyoji bo'lib, shu orqali hayotiy tajriba to'pladilar, his-tuyg'ularini boshqarishni, o'zini va boshqalarni to'g'ri anglashni, atrofidaqilar bilan muomala qilishni o'rganadilar. Bolaning aqliy rivojlanishi, uni hayotga tayyorlash va jamiyatga to'g'ri moslashuvini ta'minlashda aynan o'yin uzluksiz, tabiiy va eng samarali vositadir.

**Kalit so'zlar:** Maktabgacha yosh, bolalar, o'yin, aqliy rivojlanish, tafakkur, nutq, diqqat, psixologiya, mustaqillik, ijodkorlik, bola taraqqiyoti, pedagogika, shaxs kamoloti, muloqot, pedagog, tarbiya, harakat, jamiyat, bola psixologiyasi, bolaning rivojlanish bosqichi.

#### ЗНАЧЕНИЕ ИГРЫ В УМСТВЕННОМ РАЗВИТИИ ДЕТЕЙ ДОШКОЛЬНОГО ВОЗРАСТА

Аннотация

Дошкольный возраст - один из важнейших этапов в жизни человека. На этом этапе неразрывно связаны возможности и процессы, которые возникают для физического, психического и духовного развития ребенка. Именно в это время начинают формироваться индивидуальные способности, и в результате положительного влияния окружающей среды развивается раннее общение в семье и в обществе, мировоззрение, характер и навыки независимого мышления. В этот период дети больше познают окружающий мир через игру, открывают для себя новые, ранее неизвестные вещи. Игра - это их естественная потребность, благодаря которой они приобретают жизненный опыт, учатся управлять своими эмоциями, правильно понимать себя и других и взаимодействовать с окружающими. Игра - это непрерывный, естественный и наиболее эффективный инструмент обеспечения психического развития ребенка, подготовки его к жизни и правильной адаптации в обществе.

**Ключевые слова:** Дошкольный возраст, дети, игра, психическое развитие, мышление, речь, внимание, психология, самостоятельность, творчество, развитие ребенка, педагогика, личностное развитие, общение, педагог, воспитание, движение, общество, детская психология, стадия развития ребенка.

#### THE IMPORTANCE OF PLAY IN THE MENTAL DEVELOPMENT OF PRESCHOOL CHILDREN

Annotation

Preschool age is one of the most important stages in a person's life. At this stage, the opportunities and processes that arise for the physical, mental and spiritual development of the child are inextricably linked. It is at this time that individual abilities begin to form, and as a result of the positive influence of the environment, early communication in the family and in the community, worldview, character and independent thinking skills develop. During this period, children learn the outside world more through play, discover new, previously unknown things for themselves. Play is their natural need, through which they gain life experience, learn to manage their emotions, correctly understand themselves and others, and interact with those around them. Play is a continuous, natural and most effective tool for ensuring the child's mental development, preparing him for life and proper adaptation to society.

**Key words:** Preschool age, children, play, mental development, thinking, speech, attention, psychology, independence, creativity, child development, pedagogy, personal development, communication, educator, upbringing, movement, society, child psychology, child development stage.

**Kirish.** Inson hayotining ilk bosqichlari uning keyingi taraqqiyotida muhim o'rin tutadi. Ayniqsa, maktabgacha yosh davri bolalikning eng samarali va ta'sirchan davrlaridan biri hisoblanib, bu vaqtda bolada asosiy xarakter, ijtimoiy ko'nikmalar hamda aqliy salohiyat poydevori shakllanadi. Maktabgacha yoshdagi bolalar hayotining ajralmas va asosiy qismi bo'lgan o'yin, ularning ham jismoniy, ham ruhiy, eng asosiysi, aqliy rivojlanishida muhim ahamiyat kasb etadi. Bola ilk bora atrof-muhitni, o'zini, boshqalarni yaxshi o'rganish,

kashf etish, qiziqishlarini yuzaga chiqarish uchun, avvalo, o'yin vositasiga tayanadi. O'yin nafaqat bolaga xush kayfiyat, zavq bag'ishlaydi, balki uning tafakkurini, fikrlash doirasini, idrokini va tasavvurini kengaytiradi. Bola o'yin orqali o'z fikri va his-tuyg'ularini ifoda etadi, voqealar ketma-ketligini mustaqil tushunib, ularni tasavvur qilishga harakat qiladi. Shuningdek, o'yin jarayonida bola do'stlari, tengdoshlari bilan muloqotda bo'lib, ijtimoiy hayotga moslashadi, jamoada o'zini tuta bilish, muammolarni yechishda tashabbus ko'rsatishni

o'rganadi. Maktabgacha yosh davrida aqliy rivojlanishning samarali ro'y berishi, ko'p jihatdan, bolaning o'yin faoliyatiga bog'liq. Chunki aynan o'yin jarayonida bola uchun yangi bilim va ko'nikmalar sodda, qiziqarli, hayotiy tarzda namoyon bo'ladi. Bola o'rganayotgan har bir harakat, yangi omillar, voqealar avvalo, fantaziya va tasavvur yordamida, o'yin orqali mustahkamlanadi. O'yin bolada mustaqil fikrlash, tezkor va to'g'ri qaror qabul qilish, bilish jarayonida faol qatnashish, ijodiy yondashuv kabi muhim fazilatlarni rivojlantirish uchun imkoniyat yaratadi. Shu sababli ham, maktabgacha yosh davrida o'yin faoliyati, uning turli shakllari va mazmuni ancha ahamiyatli bo'lib, bola aqliy rivojida kuchli ta'sir kuchiga ega. O'yin muhitida bola tajinligi, o'zini namoyon qilishi, qisqa fursatda katta hayotiy tajriba to'plashi, hayotga, o'zini o'rab turgan olamga ijobiy munosabat shakllantirishi uchun keng imkoniyat yaratiladi. Umuman olganda, maktabgacha yoshdagi bolalarning aqliy rivojlanishida o'yin faoliyati bebaho ahamiyat kasb etadi. Inson kamolotining asosi bo'lgan bolalik davri o'yin orqali boyib, bola nutqi, tafakkuri, ijtimoiy va shaxsiy fazilatlari mukammal shakllanadi. Shu bois, bugungi kunda o'yin maktabgacha ta'lim tizimida bolaning asosiy rivojlanish manbasi sifatida e'tirof etiladi hamda uning ongli hayotga qadam qo'yishda muhim kalit bo'lib xizmat qiladi.

**Mavzuga oid adabiyotlar tahlili.** O'yin faoliyati maktabgacha yoshdagi bolalarni rivojlantirishda, ularga mustaqillik, topqirlik, fidoyilik, tashabbuskorlik bo'yicha dastlabki ko'nikmalarni berishda muhim ahamiyat kasb etadi. Bola o'yin jarayonida dunyoni o'zicha anglaydi, unga mos ravishda o'z harakatlarini rejalashtiradi va amalga oshiradi. Shu orqali bola yangi bilim va ko'nikmalarga ega bo'lishga urunadi, atrofda narsa va hodisalarga qiziqadi, savollar beradi, javob izlaydi. O'z qiziqish va ehtiyojlarini o'yin orqali ro'yobga chiqaradi, voqelikda uchragan turli vaziyatlarga mustaqil va ijodiy tarzda yechim topishga intiladi. O'yin bolaga atrof muhitning murakkab tomonlarini soddalashtiradi, uni asta-sekinlik bilan o'zlashtirish imkonini beradi, o'zini jamiyatning bir qismi sifatida his qilish hissini hosil qiladi. Shu tarzda shaxs rivoji uchun zamin yaratiladi. Bu davrda bolalar uchun eng tipik, eng qiziqarli faoliyat turi ham o'yin hisoblanadi. O'yin orqali ular ko'pchilik bilan muloqot qiladi, o'zlarni jamoadagi boshqa bolalar oldida ko'rsatish, navbat kutish, muammoli vaziyatda irodasini sinash imkoniyatiga ega bo'ladi. O'yin maktabgacha yoshdagi bolaning his-tuyg'ularini tartibga soladi, hislat va xususiyatlarning to'g'ri rivojlanishiga xizmat qiladi. Bolaning e'tibori, xotirasi, tafakkuri, nutqi, idroki va butun shaxsi o'yin orqali o'sadi va rivojlanadi. O'yin faoliyati natijasida bola hayotga, ish faoliyatiga tayyorgarlik ko'ra boshlaydi. O'yin orqali atrofda hayotning xilma-xil tomonlariga ko'nikishadi, hamma narsani sinab ko'rish, yashash va faqat tinglash emas, faol ijrochilik qilish, harakat qilishga o'rganadi [1].

O'yin davomida bola o'zidan tashqari jamoadagi boshqa bolalar bilan ham tanishadi, ularning harakatiga e'tibor beradi, birgalikda ish olib borishni o'rganadi. Bu jarayon bola ruhiyoti va tafakkurining shakllanishida kuchli rag'batga aylanadi. Bola his-tuyg'ularini turli o'yin jarayonlarida ifoda etiladi, muloqot davomida o'z ishtiyogini to'g'ri va aniq tarzi ifodalashga odatlanadi. O'yin bolalarning ichki ma'naviy dunyosini kengaytiradi, o'z nuqtayi nazarini mustahkamlashga yordam beradi, mustaqil xulosa chiqarishga undaydi. O'yin bolani faollikka, tushunganini gapiradigan, boshqalarning fikrini tinglay oladigan shaxs sifatida komillikka yetishtiradi [2].

Syujetli-rolli o'yinlar va sahnalashtirish markazlari bolalar iqtidorini namoyon qilish, o'z mahoratini ko'rsatishi uchun juda qulay muhitdir. Bu markazni bolaning "Men"ini shakllantiruvchi markaz deb ham atash mumkin. Markazdagi

barcha jihozlar bolalar hayotida uchraydigan jihozlar bo'lib, o'yin jarayonida bola ulardan foydalanishni o'rganadi va kasblar bilan yaqindan tanishish imkoniga ega bo'ladi. O'yinda oila a'zolarining o'zaro munosabatlari aks etadi va ular orqali axloqiy tarbiya olinadi, tarbiyachi uchun esa bolalar oiladagi muhitni o'rganish imkoniyatiga ega bo'ladi. Syujetli-rolli o'yinlar mazmunining o'ziga xosligi uning eng muhim xususiyatlaridan biri hisoblanadi. Mashhur pedagog va psixologlardan D.B. Elkonin, D.V. Mendjeritskiy, P.E. Samorukova va boshqalarning fikricha, syujetli-rolli o'yinlar kattalarning ijtimoiy hayotida uchraydigan rang-barang xatti-harakatlar va ko'rinishlar bolalar o'yinlarining asosiy mazmuni bo'lib xizmat qiladi. Bu esa bolalarga kattalar ijtimoiy hayoti namunasini olib, hayotni o'rganish va o'zlashtirishda faoliyat turi sifatida muhim ahamiyat kasb etadi [3].

**Tadqiqot metodologiyasi.** O'yin vaqtida bolalarning diqqat, xotira va tafakkuri eng faol holatda ishlaydi. O'yin bir qancha turli vazifalarni bajarish, qiziqarli harakatlarni amalga oshirish, atrofda narsalarni yangi burchakdan ko'rish imkonini beradi. Taraqqiyotning ilk poydevori bolalardagi fantaziyaning, ijodiy mushohada va mustaqil aqliy harakatlarning kengayishi bilan bog'liq bo'ladi. O'yin bolaning o'z oldiga qo'ygan maqsadiga erishish uchun qat'iyat bilan harakat qilish, o'zi va o'zgalarga harakatini baholash, xatolarini to'g'rilash ko'nikmalarini rivojlantiradi. Bu orqali bolada orzu, intilish, bilimga chanqoqlik va asosiy hayotiy maqsadlarga intilish kuchayadi.

O'yin orqali maktabgacha yoshdagi bolalarga dastlabki bilimlar beriladi, nutq va fikrlash rivojlantiriladi, atrof-mu-hit, ijtimoiy munosabatlar, insonlar orasidagi bandlik va ehtiyojni anglashga yordam beriladi. Bola asta-sekin o'zi uchun muhim bo'lgan psixologik va ijtimoiy fazilatlarni egallay boshlaydi, o'zining qiziqishi va ehtiyojni shakllantirishga xizmat qiluvchi faoliyatlarini amalga oshiradi. Aytish mumkinki, o'yin bolalar uchun asosiy va ajralmas vosita bo'lib, aqliy, harakatli va emotsional rivojlanishning butunligini ta'minlaydi. Bola o'yinda o'z tafakkurini kengaytiradi, yangidan-yangi g'oyalar bilan boyiydi, atrofida nimalar bo'layotganini tushuna boshlaydi. O'yin orqali bolaning mustaqillik, mas'uliyatlilik, to'g'ri va adolatli bo'lish, jamiyatda o'zini tutish, o'z hamkasblariga munosib javob qaytarish kabi axloqiy sifatlari ham vujudga keladi va mustahkamlanadi. Bolaning o'yin faoliyati nafaqat bilim va ko'nikma hosil qilish, balki jamoadoshlik, insonparvarlik, rahm-shafqat, va o'zgalarga yordam berish, va nihoyat, o'z o'ziga ishonch hissini himoya qilishni targ'ib qiladi. O'yin faoliyati ta'siri ostida bolaning nutqi boyiydi, tushunchalari kengayadi va to'g'ri mulohaza yuritish, atrofni realid qilib idrok etish imkoniyati kengayadi. Bolalarning o'yin jarayonlarida qatnashishi ular uchun shunchaki ko'ngilxushlik emas, balki hayotiy zarur ko'nikmalarni bola tabiiy holda, bosqichma-bosqich, xatolardan o'rganib, hosil qiladigan maktabdir [4].

O'yinlar orqali bola harakatlarni rejalashtirish, muhimini ajratib olish, vazifa va topshiriqlarni mustaqil bajara olish, natijani baholash, yangicha harakatlarni qurish, atrofda narsa va hodisalarga ijodiy yondoshuv bildirish, muhim hayotiy savollarga mustaqil va chuqur javob berishga intilishni o'rganadi. O'yinlar maktabgacha yosh bolalarida atrofda gilar bilan insoniy munosabatlarni to'g'ri tashkil etish, guruhda mehnat qilish, o'zaro kelishuv va hamkorlik, o'z hissiyasi va harakatlarini boshqarish, ruhiy barqarorlik va ijtimoiy moslashuv ko'nikmalarini rivojlantiradi. Maktabgacha yoshga oid o'yinlar ijodiy va intellektual rivojlanishning tub zamini bo'lib, keyingi bosqichda ham bola hayotida hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi.

**Tahlil va natijalar.** O'yin muhitida bola o'zi mustaqil qaror qabul qilishi, harakatlarini rejalashtirishi, o'z intilishlari

va kuchini to'g'ri yo'naltira olishini o'rganadi. Bu ko'nikmalar bola uchun maktabda va keyingi hayotida muhim ahamiyat kasb etadi. Bolaning kundalik o'yinlari davomida muloqot qobiliyati, diqqat va xotirasi, estetik hamda axloqiy dunyoqarashi, o'z nuqtayi nazarini ilgari surish va ijtimoiy qoidalarni egallash kabi muhim jihatlari shakllanadi. O'yinni faol tashkil etish bolalarda o'zini mustaqil tutish, xavfsiz xatti-harakatlarni egallash, o'z imkoniyatlarini to'g'ri baholash, o'z ustida ishlash fazilatlarini rivojlantiradi. O'yin bolaning idroki va chaptast harakatlarini namoyon qilish uchun eng qulay muhit yaratadi. Rivojlanayotgan bola uchun o'yin hayotining asosiy yo'nalishiga aylanadi va bola o'zini erkin, baxtli, ijodkor hamda hurmatli inson sifatida his qiladi. O'yin bola uchun dars yoki majburiyat emas, balki yangi imkoniyatlar va hayotiy o'zgarishlar sari eshik ochuvchi beg'am va quvnoq muhitdir. Bola o'yin asnosida turli narsa va jarayonlarga o'z ovozi qo'shadi, yangi ko'nikma va bilimlarni o'zlashtiradi, o'z tafakkurini erkin tariyada rivojlantiradi. O'yin – bola ruhiy dunyosining eng yorqin va tabiiy ifodasidir [5].

Maktabgacha yoshdagi bolalar uchun o'yin – kuchli intellektual va psixologik rivojlanish poydevori bo'lib xizmat qiladi. Bola aynan o'yin muhitida o'z imkoniyatlarini sinab ko'radi, oldingi tajribani boyitadi, yangi bilim va ko'nikmalarni muqim va barqaror tarzda o'zlashtiradi. O'yin bola hayotining ajralmas qismidir va u orqali bolaning mustaqil fikrlash, savol va javoblar topish, turli topshiriqlar va muammolarni mustaqil hal qilish, tashabbuskor va faollikni namoyon qilishga bo'lgan qobiliyati o'sadi. O'yin orqali bola ongli hayot asoslarini, yangi ijtimoiy munosabatlarni, aqliy tayyorgarlik va tafakkur

yetukligini egallab boradi. O'yin maktabgacha yoshdagi bolalarda dunyoni o'zicha idrok etish, his-tuyg'u va kechinmalarining boyishi, nutq va tafakkurining taraqqiy etishi, harakatlarni mustaqil nazorat qilish, natijani ongli ravishda baholash kabi muhim qobiliyatlarga asos soladi. Bola o'yin davomida mustahkam bilimlarga, ko'nikmalarga, ijtimoiy hamda axloqiy normalarga ega bo'lib boradi. Ko'p hollarda aynan o'yin davomida mustaqillik, erkinlik, topqirlik, uddaburonlik, ishonch, tashabbuskorlik, o'zaro yordam, rostgo'ylik, halol va adolatli bo'lish sifatlari yanada mustahkamlanadi. O'yin – bu hayot maktabi, uni har bir bola o'z hayot yo'lida o'qiydi, o'z dunyoqarashi va shaxsiy fazilatlarini boyitadi [6].

**Xulosa va takliflar.** Xulosa qilib aytganda, maktabgacha yoshdagi bolalar aqliy rivojlanishida o'yinning ahamiyati benihoya kattadir. O'yin bolada hayotiy muammolarni hal qilish, ilgari noma'lum bo'lgan narsalarni o'rganish, tajriba to'plash, muloqotga kirish, mustaqil harakat qilish, ijodiy fikrlash, mantiqiy va tahliliy tafakkurni rivojlantirish, itilish va bilimga chanqoq bo'lish fazilatlarini shakllantirishda eng asosiy omil hisoblanadi. Shu sababli otanonalar, tarbiyachilar va pedagoglar doimo bolalar o'yin faoliyatiga e'tibor berib, ularga qulay muhit, to'g'ri yo'naltirish, pedagogik hamda psixologik yordam ko'rsatishlari zarur. O'yin bolaning aqliy va shaxsiy o'sishi uchun eng asosiy va tabiiy vosita hisoblanadi. U orqali barkamol, faol, bilimga chanqoq, mustaqil va to'g'ri fikrlovchi jamiyat a'zosi shakllanadi.

#### ADABIYOTLAR

1. Asqarova D. Q. Bolalarni maktab ta'limiga tayyorlash metodikasi. Toshkent, 2020. 13-17-betlar.
2. Gaybullayev M., Gaybullayeva D. Bir yoshdan uch yoshgacha bolgan bolalar tarbiyasi. Onalar va maktabgacha tarbiya muassasalari mutaxassislari uchun uslubiy qo'llanma. Toshkent: Ilm-ziyo, 2006.
3. Karakhonova, S. (2019). Psychocorrection and optimal pharmacotherapy in anxiety-phobic syndrome. Psychosomatic Medicine and General Practice, 4(1), e0401175–e0401175.
4. Mamedova M. M. Ta'lim sifatini oshirishda axborot texnologiyalarining o'rni. Scientific Progress, 2021, T. 2, № 7, 1230-1234-betlar.
5. Mirzayeva D. Sh., Kurbanova Z. I. Apt-pedagogik texnologiyalar yordamida maktabgacha yoshdagi bolalarda qo'rquvlarni korreksiyalash. Scientific Progress, 2021, T. 2, № 7, 1206-1212-betlar.
6. N. M. Qayumova. Maktabgacha pedagogika. TDPU nashriyoti. 2011-yil.
7. Qurbonova Z. I. The Importance of the Use of Educational Technologies Aimed at the Development of the Child's Personality in Preschool Education. International Journal of Culture and Modernity, ISSN 2697-2131, Volume 11, 47-49-betlar, Ispaniya, 2021.
8. Qodirova F. R., Toshpo'latova Sh. Q., Qayumova N. M., A'zamova M. N. Maktabgacha pedagogika. Toshkent, 2019, 132-133-betlar.
9. Raxmonova G. S., Hakimova N. S. O'quvchilarni ma'naviy-axloqiy tarbiyalashda interfaol metodlardan foydalanish. Oriental Renaissance: Innovative, Educational, Natural and Social Sciences, 2022, T.2, C.67-72.
10. Sodiqova Sh. A. Maktabgacha pedagogika. Tafakkur sarchashmalari. Toshkent, 2013.